

**SUD ISHLARINI YURITISHNI AVTOMATLASHTIRISH: ELEKTRON ODIL
SUDLOV VA UNING CHEGARALARI TURLI MAMLAKATLARDA E-COURT
MY-SUD VA AI-SUDYALARNI JORIY ETISHNING IJOBIY VA SALBIY
TOMONLARI**

Abdukarimov Jafar Umid o'g'li
*Toshkent davlat yuridik universiteti,
Xususiy huquq fakulteti, 1-kurs talabasi*
Email. Jafarabdukarimov02@gmail.com
Tel.+998 99 391 00 19

Annotatsiya: *Ushbu maqola sud ishlarini avtomatlashtirish, elektron odil sudlov tizimlari (E-Court, My-Sud) va sun'iy intellekt asosidagi sudyalarni joriy etishning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qiladi. Maqolada elektron sud tizimlarining sud ishlarini yuritish tezligini oshirish, ish yukini kamaytirish va fuqarolarga shaffoflikni ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, texnik nosozliklar, kiberxavfsizlik xavflari, raqamli tengsizlik va AI qarorlarining xatoligi kabi muammolar ham ko'rib chiqiladi.*

Maqolada elektron sud tizimlarini joriy etishning samarali usullari, raqamli savodxonlikni oshirish, qonunchilikni takomillashtirish, inson omilini saqlash va monitoring tizimlarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sud ishlarini avtomatlashtirish faqat texnologik jarayon sifatida emas, balki huquqiy va institutional muhit bilan uyg'unlashtirilganda samarali bo'ladi.

Kalit so'zlar: *sud ishlarini avtomatlashtirish, elektron odil sudlov, E-Court, My-Sud, AI-sudyalar, raqamli huquqiy tizim, shaffoflik.*

Kirish: Bugungi globallashtirish sharoitida sud tizimining samaradorligini oshirish, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirish hamda adolatga bo'lgan ishonchni kuchaytirish barcha davlatlar oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. So'nggi o'n yillikda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sud jarayonlarini avtomatlashtirish, elektron hujjatlar aylanishi, masofaviy sud majlislari va sun'iy intellektga asoslangan tahliliy tizimlar kabi yangi mexanizmlarning shakllanishiga olib keldi. Bu jarayon "elektron odil sudlov" (e-justice) konsepsiyasini paydo qilib, sud tubdan o'zgartirayotgan zamonaviy tendensiyalarni belgilab berdi ¹.

¹ CEPEJ. *European Ethical Charter on the Use of AI in Judicial Systems* (2018)
<https://www.europarl.europa.eu/cmsdata/196205/COUNCIL%20OF%20EUROPE%20-%20European%20Ethical%20Charter%20on%20the%20use%20of%20AI%20in%20judicial%20systems.pdf>

Elektron sudlov tizimining markazida e-Court va my.sud kabi platformalar turadi. Ular sud ishlarini elektron qabul qilish, jarayonlarni raqamli kuzatish, taraflarga onlayn ariza topshirish va masofadan turib ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bunday tizimlar ilk bor Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya va Xitoyda joriy etilib, yuqori samaradorlik ko'rsatganligi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan². Ayniqsa Xitoyning "Smart Court" konsepsiyasi, Singapurning "Judicial AI Programme" dasturi va Estoniyaning raqamli sudlov modeli boshqa davlatlar uchun namunaviy yo'nalishlardan biri sanaladi³.

Oxirgi yillarda esa sud jarayonlariga AI-sudya (sun'iy intellekt asosidagi yarim-avtomatik qaror yordamchilari)ni tatbiq etish masalasi global ilmiy muhokamaning markaziga aylandi. AI texnologiyalari faktlarni saralash, huquqiy normalarni tahlil qilish, oldingi sud amaliyotiga asoslangan prognozlarni taqdim etish orqali sudyalarga ko'makchi sifatida xizmat qilishi mumkin. Biroq bunday tizimlarning huquqiy maqomi, inson omili o'rnini qanchalik egallashi mumkinligi va etik xavflari hali ham bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda⁴.

O'zbekiston ham bu jarayonlardan chetda qolmay, oxirgi besh yil ichida "E-Sud", "my.sud.uz", elektron hujjatlar aylanishi tizimi, sud majlislarini masofadan o'tkazish moduli va sudyalarni uchun raqamli boshqaruv tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. 2030 yilga mo'ljallangan Sun'iy intellekt rivojlantirish strategiyasida sud organlarida AI texnologiyalaridan foydalanish, algoritmlarni audit qilish va ularning oshkoraligini ta'minlash kabi vazifalar belgilangan⁵. Bu esa mamlakatning sud jarayonlarini to'liq raqamlashtirish sari yo'l olayotganini ko'rsatadi.

Sud ishlarini avtomatlashtirishning ijobiy jihatlari – jarayonlarning tezlashuvi, korrupsiya xavfining kamayishi, inson omili bilan bog'liq xatolarning qisqarishi, shaffoflikning oshishi – ilmiy adabiyotlarda ko'p bora tasdiqlangan. Shu bilan birga, uning salbiy tomonlari ham mavjud: algoritmik tarafkashlik, ma'lumotlar xavfsizligi, fuqarolarning raqamli tengsizligi va huquqiy javobgarlikning noaniqligi. Shuning uchun elektron odil sudlovni joriy etish texnologik jarayon bo'lishi bilan birga, chuqur huquqiy, axloqiy va institutsional masalalarni ham qamrab oladi.

² Tan, K.H. *AI and Judicial Transformation in Singapore*. Thomson Reuters (2024).

<https://insight.thomsonreuters.com/sea/legal/posts/ai-in-the-judiciary-a-singapore-courts-perspective>

³ Zhou, Z. *Smart Courts in China: Achievements and Challenges* (ScienceDirect, 2022).

<https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/download/7623/7397/13465>

⁴ Angwin, J. et al. *Machine Bias*. ProPublica (2016). <https://www.propublica.org/article/machine-bias-risk-assessments-in-criminal-sentencing>

⁵ PQ-358-son Prezident qarori.: "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" (14.10.2024). <https://www.lex.uz/docs/-7158604>

Mazkur maqola turli mamlakatlardagi e-Court, my-sud va AI-sudyalar tizimlarining ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy manbalar asosida tahlil qiladi, shuningdek, O‘zbekiston sharoitida ularning qo‘llanish imkoniyatlari va xavflarini baholaydi.

Elektron odil sudlov tizimlari (E-Court) dunyoning ko‘plab mamlakatlarida sud jarayonlarini raqamlashtirishning asosiy instrumentiga aylangan. E-Court — ishlarni elektron shaklda qabul qilish, hujjat almashinuvi, masofaviy sud majlislari va sud umumiy boshqaruvini avtomatlashtiruvchi raqamli platformadir. Mazkur tizim Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi davlatlarda muvaffaqiyatli joriy etilgan bo‘lib, jarayonlarning 80–95 % gacha elektronlashtirilganligi kuzatiladi⁶.

My-Sud (MyCourt) turidagi milliy sud platformalari esa fuqarolarga shaxsiy kabinet orqali ariza topshirish, ish holatini onlayn kuzatish, raqamli bildirishnomalar qabul qilish va elektron imzo orqali hujjatlarni tasdiqlash imkonini yaratadi. Hindistonda e-Courts Project 40 milliondan ortiq sud ishlarini raqamlashtirgan bo‘lsa, O‘zbekistonning my.sud.uz tizimi fuqarolar uchun jarayonlarni sezilarli yengillashtirganligi qayd etiladi⁷.

Sun‘iy intellektga asoslangan AI-sudyalar (AI-judges) konsepsiyasi Xitoyda birinchi bo‘lib amaliyotga joriy qilingan. Xitoy Internet Sudlarida AI tizimi dalillarni saralash, protokollarni avtomatik tuzish va ayrim kichik tafovitli ishlarda tavsiya xarakteridagi qarorlar ishlab chiqishda qo‘llanadi. Estoniyada esa “KrattAI” modeli orqali sudyalalar uchun analitik yordamchi vositalar ishlab chiqilgan bo‘lib, AI sud qarorlarini qabul qilishda emas, balki ma‘lumotlarni tahlil qilishda yordamchi sifatida ishlatiladi⁸.

Shu bilan birga, xalqaro standartlarda AI sud tizimida to‘liq mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida tan olinmaydi. Yevropa Kengashining CEPEJ tashkiloti AIni sud jarayonlarida qo‘llashning 5 asosiy prinsipini belgilagan. Ulardan eng muhimi - “insonning markaziy roli”, ya‘ni yakuniy qaror har doim tirik sudya tomonidan tasdiqlanishi kerakligi tamoyilidir⁹.

Elektron sud tizimlarining huquqiy poydevori esa elektron imzo, raqamli identifikatsiya, ma‘lumotlar xavfsizligi va elektron hujjatlarning yuridik kuchi bilan bog‘liq normativ hujjatlarda mustahkamlangan. Bu yo‘nalishda BMTning UNCITRAL Model Qonuni ko‘plab davlatlarda asosiy xalqaro standart sifatida qo‘llanadi.

Elektron sud tizimlarining joriy etilishi sud jarayonlari samaradorligini sezilarli oshiradi. Avvalo, E-Court platformalari ishlarni elektron shaklda qabul qilish, hujjatlarni masofadan turib yuborish va ularning real vaqt rejimidagi monitoringi imkonini yaratib, sud jarayonlarining tezkorligini 30–50 % gacha oshirishi kuzatilgan¹⁰. Bu hol sudyalarga

⁶ Activity reports. CEPEJ(2022)5E / 19 May 2022. European Commission for the Efficiency of Justice (CEPEJ) - 2021 Activity report · CEPEJ(2021)9E / 17 June 2021 <https://www.coe.int/en/web/cepej/documentation/cepej-documents/activity-reports>

⁷ UNDP. *Digitalization of Justice Systems Guide*, 2021. <https://www.undp.org/rolhr/justice/digitalization-and-e-justice>

⁸ Chinese Courts and Internet Judiciary (2019) <https://www.chinajusticeobserver.com/law/x/chinese-courts-and-internet-judiciary>

⁹ Activity reports. CEPEJ(2022)5E / 19 May 2022. European Commission for the Efficiency of Justice (CEPEJ) - 2021 Activity report · CEPEJ(2021)9E / 17 June 2021 <https://www.coe.int/en/web/cepej/documentation/cepej-documents/activity-reports>

¹⁰ Social Assessment Digital and Integrated Land and Justice Services for Citizens Project (P180605) (English). Washington, D.C. : World Bank Group. <http://documents.worldbank.org/curated/en/099112223125024757>

yuklama kamayishiga, fuqarolar uchun esa hujjat topshirish va sud majlislarida ishtirok etish jarayonlari soddalashishiga xizmat qiladi.

My-Sud turidagi milliy platformalar fuqarolarning sud organlariga murojaat qilish imkoniyatini kengaytiradi. Masalan, O'zbekistonning my.sud.uz tizimi orqali ariza berish, da'vo holatini kuzatish, elektron bildirishnomalar va SMS xabarnomalar olish jarayoni tezlashgan. Bunday yondashuv fuqarolarning sudga ishonchini oshirishga xizmat qiluvchi omil sifatida qayd etiladi¹¹.

AI-sudyalar va sun'iy intellekt tizimlari esa sud jarayonlarining analitik bosqichlarida katta afzalliklar yaratadi. Xususan, AI dalillarni tartiblash, huquqiy normalar bo'yicha tezkor qidiruv, o'xshash sud presedentlarini aniqlash kabi jarayonlarda sudyalarning vaqtini 40% gacha tejashi mumkinligi ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlangan¹². Bundan tashqari, AI yordamida protokol tuzish, tarjima qilish, hujjatlarni kategoriyalarga ajratish kabi texnik vazifalar avtomatlashtiriladi.

Bir qator davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AI tizimlaridan foydalanish inson xatolari ehtimolini kamaytiradi. Singapur sud tizimida AI-asosli hujjat tahlili vositalaridan so'ng huquqiy-texnik xatolar soni 25 % gacha kamayganligi qayd etilgan¹³. Xitoy Internet sudlarida esa AI tavsiyaviy qarorlar orqali kichik talablar bo'yicha sudyalarga yordam berib, jarayonlarni tezlashtirgan.

Elektron sud tizimlarining yana bir muhim ijobiy tomoni - shaffoflik. Sud jarayonlari bo'yicha barcha hujjatlar elektron arxivga saqlanadi, bu esa korrupsiya xavfini kamaytiradi va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. BMTning 2022-yilgi hisobotida elektron sud tizimi mavjud bo'lgan davlatlarda sud jarayonlari ustidan nazorat ko'rsatkichlari o'rtacha 20 % ga oshgani ko'rsatilgan¹⁴.

Shu tariqa, E-Court, My-Sud va AI tizimlarining joriy etilishi sudlarni yanada ochiq, tezkor, aniq va fuqaroga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi.

Elektron sud tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi sud yondashuvlarining joriy etilishi bilan bir qatorda ayrim salbiy jihatlar ham mavjud. Avvalo, texnik va kiberxavfsizlik masalalari eng muhim cheklovlardan biridir. Sud hujjatlari va shaxsiy ma'lumotlar elektron shaklda saqlanishi xavfli bo'lib, serverlar va tizimlarga kiberhujumlar amalga oshirilishi mumkin. Bu hol sud jarayonlariga ishonchni kamaytirishi, ma'lumotlarning noaniq ishlatilishi va fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini xavf ostiga qo'yishi mumkin.

Shuningdek, texnologik notekislik muammosi mavjud. Aholining barcha qatlamlari internet resurslaridan teng foydalanolmaydi. Ayniqsa, qishloq joylaridagi fuqarolar uchun onlayn tizimlardan foydalanish cheklangan bo'lishi. Bu esa raqamli tengsizlikni kuchaytirib, sud xizmatlariga kirish imkoniyatlarini cheklaydi.

¹¹ UzDaily.uz. *Sud faoliyatini yanada yaxshilash masalalari ko'rib chiqildi*

28/02/2025. <https://www.uzdaily.uz/uz/sud-faoliyatini-yanada-yaxshilash-masalalari-korib-chiqildi/>

¹² OECD. *AI in Justice Sector: Analytical Potential*, 2022. https://www.oecd.org/en/publications/governing-with-artificial-intelligence_795de142-en/full-report/ai-in-justice-administration-and-access-to-justice_f0cbe651.html

¹³ Singapore Judicial College. *Tech-Driven Courts Review*, 2021. [https://www.judiciary.gov.sg/docs/default-source/sjc-docs/adopting-technology-in-an-evolving-justice-system---final-project-report-\(approved\).pdf?sfvrsn=dd97cc9c_0](https://www.judiciary.gov.sg/docs/default-source/sjc-docs/adopting-technology-in-an-evolving-justice-system---final-project-report-(approved).pdf?sfvrsn=dd97cc9c_0)

¹⁴ United Nations Activities on Artificial Intelligence (AI) Year: 2022 Persistent link: <http://handle.itu.int/11.1002/pub/81f16711-en>

AI-sudyalar va avtomatlashtirilgan tizimlar qaror qabul qilishda xatolik ehtimoli bilan ham bog'liq. Sun'iy intellekt algoritmlari ma'lumotlarga asoslanadi, ammo noto'g'ri yoki yetarli bo'lmagan ma'lumotlar AI qarorlariga xatolik olib kelishi mumkin¹⁵. Shuningdek, AI qarorlarni tavsiya sifatida berishi mumkin, ammo sudya tomonidan noto'g'ri talqin qilinganda bu fuqarolar huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir salbiy tomon — huquqiy va etik masalalar. AI va elektron sud tizimlarining joriy etilishi qonunchilikning yetarli darajada tayyor emasligi, hamda sudyalarning texnologiyaga moslashuv darajasi bilan bog'liq¹⁶. Bundan tashqari, avtomatlashtirish jarayonida inson omili cheklanishi, qaror qabul qilishdagi muhim professional baholashlar kamayishi ehtimoli mavjud.

Shuningdek, texnologik nosozliklar va tizimlarning ishlashdagi uzilishlar sud ishlarining kechikishiga olib kelishi mumkin. Ayrim davlatlarda AI tizimlarining sinov jarayonida 15–20 % ishlar noto'g'ri kategoriyalarga ajratilgani qayd etilgan¹⁷.

Shu tariqa, elektron sud tizimlari va AI-sudyalarining joriy etilishi ijobiy tomonlariga qaramay, texnik, huquqiy va ijtimoiy muammolarni e'tiborsiz qoldirmaslik lozim.

Xulosa: Xuloasa qiladigan bo'lsak sud ishlarini avtomatlashtirish, elektron odil sudlov tizimlari (E-Court, My-Sud) va sun'iy intellekt asosidagi sudyalarning joriy etilishi nafaqat texnologik, balki institutional transformatsiyani ham ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, elektron sud tizimlari sud ishlarini yuritish tezligini oshiradi, sudyalarning ish yukini kamaytiradi va fuqarolar uchun shaffoflikni oshiradi. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan tizimlar raqamli huquqiy savodxonlikni rivojlantirishga, sud ishlariga tezkor kirish imkonini yaratishga xizmat qiladi. Biroq yuqoridagi bo'limlarda ko'rsatib o'tilganidek, texnik nosozliklar, kiberxavfsizlik muammolari, raqamli tengsizlik, hamda AI qarorlarining xatoligi kabi salbiy jihatlari mavjud. Shu sababli, sud ishlarini avtomatlashtirish jarayonida muvozanatli yondashuv talab qilinadi: texnologiya sudya va inson qaror qabul qilishining o'rnini egallamasligi, balki uni qo'llab-quvvatlashi zarur.

Tavsiya va takliflar quyidagilardan iborat:

Texnik va kiberxavfsizlikni mustahkamlash: Elektron hujjatlarni himoya qilish, serverlar va ma'lumotlar bazasini muntazam auditdan o'tkazish, tizimni kiber hujumlardan himoya qilish.

Raqamli savodxonlikni oshirish: Fuqarolar va sud xodimlari uchun elektron sud tizimlari bo'yicha o'quv va treninglar tashkil etish, qishloq joylarida internet va elektron qurilmalarni ta'minlash.

¹⁵ Angwin, J., Larson, J., Mattu, S., & Kirchner, L. (2016, May 23). Machine Bias — There's Software Used across the Country to Predict Future Criminals. And It's Biased against Blacks. ProPublica, Online Edition. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3337609>

¹⁶ Chinese Courts and Internet Judiciary (2019) <https://www.chinajusticeobserver.com/law/x/chinese-courts-and-internet-judiciary>

¹⁷ CEPEJ. *European Ethical Charter on the Use of AI in Judicial Systems* (2018) <https://www.europarl.europa.eu/cmsdata/196205/COUNCIL%20OF%20EUROPE%20-%20European%20Ethical%20Charter%20on%20the%20use%20of%20AI%20in%20judicial%20systems.pdf>

Qonunchilikni takomillashtirish: AI va avtomatlashtirilgan sud tizimlarining ishlashini tartibga soluvchi huquqiy bazani yaratish, etik me'yorlarni belgilash.

Sud jarayonlarida inson omilini saqlash: AI faqat yordamchi vosita sifatida ishlatilishi, sudyalarning qaror qabul qilishda professional baholashlarni amalga oshirishlari lozim.

Monitoring va baholash tizimlarini joriy etish: Tizim ishlashini muntazam tahlil qilish, xatoliklarni aniqlash va algoritmlarni yangilash.

Shu tariqa, sud ishlarini avtomatlashtirishning muvaffaqiyati faqat texnologik joriy etilish bilan cheklanmay, inson, huquqiy va institutional omillarni uyg'unlashtirishga bog'liq. To'g'ri yondashuv va tavsiyalarni amalga oshirish orqali, E-Court va AI-sudyalarning fuqarolarga tez, shaffof va adolatli sud xizmatlarini taqdim etishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. CEPEJ. *European Ethical Charter on the Use of AI in Judicial Systems* (2018) <https://www.europarl.europa.eu/cmsdata/196205/COUNCIL%20OF%20EUROPE%20-%20European%20Ethical%20Charter%20on%20the%20use%20of%20AI%20in%20judicial%20systems.pdf>
2. Tan, K.H. *AI and Judicial Transformation in Singapore*. Thomson Reuters (2024). <https://insight.thomsonreuters.com/sea/legal/posts/ai-in-the-judiciary-a-singapore-courts-perspective>
3. Zhou, Z. *Smart Courts in China: Achievements and Challenges* (ScienceDirect, 2022). <https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/download/7623/7397/13465>
4. Angwin, J. et al. *Machine Bias*. ProPublica (2016). <https://www.propublica.org/article/machine-bias-risk-assessments-in-criminal-sentencing>
5. PQ-358-son Prezident qarori.: "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" (14.10.2024). <https://www.lex.uz/docs/-7158604>
6. Activity reports. CEPEJ(2022)5E / 19 May 2022. European Commission for the Efficiency of Justice (CEPEJ) - 2021 Activity report · CEPEJ(2021)9E / 17 June 2021 <https://www.coe.int/en/web/cepej/documentation/cepej-documents/activity-reports>
7. UNDP. *Digitalization of Justice Systems Guide*, 2021. <https://www.undp.org/rolhr/justice/digitalization-and-e-justice>
8. *Chinese Courts and Internet Judiciary* (2019) <https://www.chinajusticeobserver.com/law/x/chinese-courts-and-internet-judiciary>
9. Social Assessment Digital and Integrated Land and Justice Services for Citizens Project (P180605) (English). Washington, D.C. : World Bank Group. <http://documents.worldbank.org/curated/en/099112223125024757>
10. UzDaily.uz. Sud faoliyatini yanada yaxshilash masalalari ko'rib chiqildi 28/02/2025. <https://www.uzdaily.uz/uz/sud-faoliyatini-yanada-yaxshilash-masalalari-korib-chiqildi/>

11. OECD. AI in Justice Sector: Analytical Potential, 2022. https://www.oecd.org/en/publications/governing-with-artificial-intelligence_795de142-en/full-report/ai-in-justice-administration-and-access-to-justice_f0cbe651.html
12. Singapore Judicial College. Tech-Driven Courts Review, 2021. [https://www.judiciary.gov.sg/docs/default-source/sjc-docs/adopting-technology-in-an-evolving-justice-system---final-project-report-\(approved\).pdf?sfvrsn=dd97cc9c_0](https://www.judiciary.gov.sg/docs/default-source/sjc-docs/adopting-technology-in-an-evolving-justice-system---final-project-report-(approved).pdf?sfvrsn=dd97cc9c_0)
13. United Nations Activities on Artificial Intelligence (AI) Year: 2022 Persistent link: <http://handle.itu.int/11.1002/pub/81f16711-en>
14. Angwin, J., Larson, J., Mattu, S., & Kirchner, L. (2016, May 23). Machine Bias—There’s Software Used across the Country to Predict Future Criminals. And It’s Biased against Blacks. ProPublica, Online Edition. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3337609>